

ABDULLA QAHHORNING “AYB KIMDA?” HIKOYASINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Allamuratova Marjona Shukurullo qizi

*Guliston davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek nasrining otasi, haq so‘z yozuvchisi hisoblangan Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi, o‘zbek adabiyoti va hikoyachiligi rivojiga qo‘shgan hissasi, hikoya janrining rivojlanishidagi o‘rni hamda “Ayb kimda?” hikoyasi asosida ota onalar va maktab o‘rtasidagi tarbiyaviy mas’uliyat, o‘zaro hamkorlik va farzand tarbiyasidagi muammolar tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, hikoya, realistik tasvir, hajviylik, milliy ruh, qahramonlar, an’anaviylik, zamonaviylik

Annotation. This article discusses the life and work of Abdulla Qahhor, recognized as the father of Uzbek prose and a writer of truth, his contribution to the development of Uzbek literature and storytelling, his role in the development of story genre and an analysis of the educational responsibility, mutual cooperation and problems in raising children between parents and schools based on the story “Who Is to blame?”.

Key words: Abdulla Qahhor, story, realistic depiction, satire, national spirit, heroes, traditionalism, modernity

Serqirra iste’dod sohibi, o‘zbek adabiyotiga mo‘jizakor hikoyalari bilan kirib kelgan va ushbu janrning tengsiz ustasi sifatida tanilgan Abdulla Qahhor 1907- yil 17- sentabrda Qo‘qonda oddiy temirchi oilasida tugilgan. So‘z ustasi sanalgan Abdulla Qahhorning ijodi adabiyotimizning shonli sahifalaridan o‘rin olgan. U o‘z ijodini felyeton, hikoya va hajviyalar yozish bilan boshlagan bo‘lsa-da, biz uni qalami o‘tkir hikoyanavis sifatida bilamiz. “Atoqli rus tanqidchisi Smirnova maqolalaridan birida “Abdulla Qahhor mashhur jahon hikoyanavislari bilan bir qatordan o‘rin olishga munosib yozuvchidir “ degan fikrni bildiradi” [1, 25]. Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotimiz rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan va ayrica o‘z uslubi hamda ovozigaga ega bo‘lgan zabardast adiblarimizdan biridir. Uning ijodi doim boshqalar uchun mahorat maktabi vazifasini o‘tab kelgan. Shuningdek, uning asarlaridan bahra olmagan, murojaat qilmagan va uni o‘ziga ustoz deb bilmagan ijodkorlarni topish mushkul edi. Abdulla Qahhor ijodiga to‘xtalar ekanmiz, uning ijodi va shaxsiyati bilan bog‘liq bir qancha asosiy sifatlarni aytib o‘tishimiz joiz. Uning realistik tasviri, hazil-mutoyibaga boy tili, milliy ruh va qadriyatlarga sadoqati hamda jamiyatdagi illatlarga tanqidiy yondashuvi tahsinga loyiq. Qahhorning hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi va ishonarliligi bilan kitobxonlarni hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasvirlaydigan barcha narsa, voqea- hodisa aynan bo‘lib o‘tgan, real va hayotning bir

bo'lagi sifatida gavdalanadi. Sababi uning hikoyalarida tasvirlangan voqealar va shaxslar aynan uning hayotida ro'y bergan, uning atrofida aylangan hayot tarzidan olingani aytib o'tilgan.

“Adabiyotimizning yirik vakili, o'zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o'n yillardan buyon xalqimizning ong-u shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko'p avlodlar uchun mulohaza ob'ekti bo'lib qolishi shubhasizdir”[2.34].

Abdulla Qahhor o'zbek madaniyatini yuksaltirish, xalqimizning olijanob fazilatini butun dunyoga mashhur va ma'lum qilishda unutilmas xizmat ko'rsatgan zahmatkash adiblardan biri sifatida doim yodda qoladi. Qahhor hikoyalarining har birida davrning ijtimoiy muammolari goh kuchli drammatizm shaklida, goh achchiq satira ostida yoritiladi. Uning hikoyalarida o'zbek xalqining urf-odati, turmush tarzi, dard-tashvishlariyu, quvonchlari, donishmandligiyu hajviylikka yo'g'rilgan hayoti jonli, aniq, sodda, tabiiy va mohirlik bilan tasvirlanadi. Shu bois, bugungi kunga kelib ham asarlari sevib o'qilmoqda. “Abdulla Qahhor bebaho, o'lmas asarlari bilangina emas, bevosita amaliy ishlari, shaxsiy ibрати, yuksak e'tiqodi, metin irodasi, haqiqat yo'lida jonbozligi, jasorati bilan bizlar uchun ustoz- murabbiy edi va shunday bo'lib qolaveradi”[3. 53]. Abdulla Qahhor hikoyalari ravon, ixcham va tili soddaligi bilan qalbga tez va oson kirib boradi. Yozuvchi xalq tilini yaxshi bilar, qadrlar va mas'uliyat bilan yondashar edi. Qahhor ijodining tahlili shuni ko'rsatadiki, uning hikoyalari o'zbek xalqining ruhiy olamiga, tarixiy xotirasiga va ma'naviy qadriyatlariga asoslangan. Bu esa yozuvchining asarlarini nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega manba sifatida baholash imkonini beradi. Endilikda, xuddi shu zaylda dunyoga kelgan asarlaridan biri “Ayb kimda?” deb nomlanuvchi hikoyasi tahlili bilan tanishamiz. Ushbu hikoya nozik hazil va ijtimoiy tanqid ohangida yozilgan bo'lib, oilaviy muhit, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni qamrab olgan. Oila, maktab va jamiyat o'rtasidagi tarbiya masalalari ochib berilgan. Biz hikoyadan ota-onaning farzandiga nisbatan bee'tibor ekanligi, nazorat qilmasligi va biror marta maktab yig'ilishlarida qatnashmagan bo'lsalarda, lekin maktab va o'qituvchilarni tanqid qilishdan qaytmasligini ko'rishimiz mumkin. Abdulla Qahhor asarda Hamroyev obrazini bizga o'zini ongli, farzand tarbiyasiga jiddiy yondashadigan ota sifatida ko'rsatmoqchi bo'ladi, aslida esa o'z mas'uliyatidan qochayotgan insonni tasvirlaydi. U majlisga borishni rejalashtiradi, daftarga bola tarbiyasiga oid gaplarni yozadi, xotining shikoyatlarini yozib oladi, ammo oxir-oqibat hech qanday chora ko'rmaydi. Bu orqali muallif jamiyatdagi ko'plab ota-onalarning “so'zda qat'iy, amalda beparvo” yondashuvini tanqid qiladi.

“Kecha Hamdam ota-onalar majlisi bo'lishi to'g'risida maktabidan qog'oz olib kelgan. Hamroyev hech qachon majlisga borgan emas, ammo fursati bo'lganda bir

tayyorlanib bormoqchi va bola tarbiyalashni bilmagan yoki bu ishga befarq qaragan o'qituvchilarni uyaltirmoqchi edi. Bu niyat uning xotini Sobiraxonga juda ma'qul bo'ldi.

Hamroyev Sobiraxonning shikoyatlarini, gazetalarda o'qigan, odamlardan eshitgan tarbiyaga doir gaplarni yozib qo'yib daftarini to'ldirdi, keyin bularning hammasidan xulosa chiqardi"

Bundan tashqari inson tarbiyani avvalo qayerdan olishi ochiq ko'rsatib berilgan. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek ertaga Hamdam ham xuddi shu ko'rinishda voyaga yetadi. Qahhor ushbu hikoya orqali jamiyatda bolalarning tarbiyasiga faqat o'qituvchi emas, balki ota-onalar ham mas'uliyatli va e'tiborli bo'lishi kerakligini ko'rsatmoqchi. Agar bola yaxshi tarbiya olmasa, jamiyatga zarar yetkazadigan ishlar bilan shug'ullansa, nafaqat maktab, balki butun jamiyat javobgar sanaladi. Asar bir tomondan o'qituvchilarning mehnatini qadrlash va farzand tarbiyasiga jiddiy yondashish kerakligini ko'rsatadi.

– Nima qilib o'tiribsizlar? Direktor juda tayinlagan edi, xatni topshirmagandirsan deb ertaga meni urishadi.

– Oying bormaydi, borishdan foyda ham yo'q, men yanagi safar boraman.

– Mudir so'rasa shunday deymanni?

– Nega? Kap-katta bo'lib shunga ham vaj topolmaysan-mi? Dadam ishdan kech keldi, oyim betob yotibdi degin !

Hamdam dadasiga qaraganicha uzoq turib qoldi. U ertaga xuddi shunday deydi.

Sobiraxon obrazi orqali esa biz oiladagi noaniq tarbiyaviy yondashuvni ko'rishimiz mumkin. Onaning bolani bir tomondan ayblashi, ikkinchi tomondan esa himoya qilishi. Hamdam esa kattalar tomonidan bosim ostida yolg'on gapirishga majbur bo'layotgani kuzatiladi. Bu esa bola ongida qo'rquv, ishonchsizlik va ikkiyuzlamachilik kabi salbiy his-tuyg'ularni shakllantiradi. Bola o'z xatti-harakatlariga javobgarlik emas, faqat jazodan qochishni o'rganadi.

.....Hamdam yolg'on gapirishning bunday oqibatini umrida birinchi ko'rishi edi, yig'lab yubordi.

— Menga qara deymani! Kim o'rgatdi senga yolg'on gapirishni? Qaysi domlang?

Sobiraxon aralashdi:

— Qo'ying endi, minba'd yolg'on gapirmaydi. Voy, tavba, ruschadan nega "yaxshi", baloday gapiradi shekilli-ku!

Bola rivojiga eng yaqin muhit bu oila bo'lganidek, bu muhitdagi har qanday o'zgarish bola shaxsiyatiga ta'sir qiladi. So'nggi yillarda jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ota-onalik roliga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy oilalarda ota-onalar o'z farzandlariga har tomonlama qo'llab-quvvatlash, erkinlik va fikr bildirish imkonini berishga harakat qilmoqda. Ilgari kuchli nazorat, qat'iy tartib, buyruqbozlik asosida olib borilgan tarbiya bugungi kunda bolani tushunish, unga ishonch bildirish va fikrini inobatga olishga asoslangan yondashuvlar bilan almashmoqda. Lekin

ayrim xonadonlar borki, hanuz farzand tarbiyasi masalalariga to'g'ri yondashmagan. Asosiy omil sifatida ko'rsatishimiz mumkin zamonaviy texnologiyalar, xususan, smartfonlar va internet ota-onaning farzand bilan tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa farzand tarbiyasida e'tiborsizlik va uning natijasidagi o'zboshimchalikka olib keladi. Yana bir sabablardan biri ko'plab ota-onalar ish bilan band bo'lib, farzandlariga yetarlicha vaqt ajrata olmayotgani. Ota-onasining vaqt yetishmovchiligi farzandlarda yolg'izlik va o'zini qadrsiz his qilishiga sabab bo'lmoqda. Ota-onalar bolalariga faqat moddiy emas, balki sifatli vaqt, mehr-muhabbat, ishonch va hurmat berish orqali ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib kamol topishiga xizmat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhorning ushbu hikoyasini "oilaviy tarbiya, ota-onalik mas'uliyati va zamonaviy jamiyatdagi tarbiyaviy muammolarni kulgi orqali fosh qiluvchi, jiddiy o'zgarishlar haqida o'ylantiruvchi asardir" desak ham to'g'ri bo'ladi." Ayb kimda?" hikoyasi - farzand tarbiyasida ota-onalik mas'uliyatining naqadar muhimligini ko'rsatuvchi badiiy namunadir. Hajviy ifoda vositalari orqali muallif oilaviy muhitdagi befarqlik, noto'g'ri yondashuv va pedagogik savodsizlikni tanqid qiladi. Mazkur asar zamonaviy tarbiya tizimida ota-onalarning faolligi, izchilligi va namunadorligi qanday ahamiyat kasb etishini yana bir bor eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabaliyeva Mukarram Ma'rifat chashmasi, Adabiyotimiz faxri // 2010. 6- son
2. Rahmon Qo'chqor. Men bilan munozara qilsangiz... –T.: Ma'naviyat, 1998, 4-bet
3. Normatov Umarali "Qahhorni anglash mashaqqati" Toshkent Universitet. 1999
4. Abdulla Qahhor "Adabiyot muallimi" Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019, 51-bet
5. www.kh-davron.uz